

TARIX FANINING KENG TARMOQLARI VA TUZILMALARI

Akmaljonov Akbarjon Akmaljon o'g'li

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va
san'at fakulteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Akmaljonovakbarjon2001@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqola tarix fanining keng tarmoqlari va tuzilmalari haqida fikr yuritib, fanning inson va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bir qator sohalar rivojlanishi jarayonlarining umumiyliigi mahsuli ekanligi to'g'rida ma'lumotlar bayon etadi.

Kalit so'zlar: siyosiy tarix, harbiy tarix, Ijtimoiy tarix, tarixiy bilish, Tarix fani otasi, D. Keyns nazariyasi

Tarix fani alohida mustaqil fan sohasi sifatida dastlab qadimgi Yunonistonda shakllangan. Bizga bugungi kunda tushunarli bo'lgan «tarix» so'zi qadimgi yunon tilida «qidirish», «izlash» kabi ma'nolarni anglatgan va bu tushuncha ostida Gerodotning o'tmish haqidagi yozma hikoyalari tushunilgan. Tarix fanining bilish obyekti insoniyat tarixining barcha davrlarida sodir bo'lgan voqealar, jarayonlar, voqeliklar (ko'rinishlar)ning majmuasidir. Tarix fanining predmeti bu vaqt va makondagi shakllanishidan to tanazzulga uchrab tugaguncha bo'lgan jarayonlarni boshdan kechirgan aniq va konkret jamiyat bo'lib, umumiy yaxlit holda hamda uni tashkil qiluvchi barcha tarkibiy tuzilmalari va qismlari, shuningdek bu jamiyatning boshqa aniq va konkret jamiyatlar bilan o'zaro munosabatlaridir. Tarixiy bilishning asosiy maqsadi obyektiv va xolis, tizimlik, konkret jamiyatning taraqqiyotidagi tarixiy jarayon haqidagi konkret bilimga va ilmiy jihatdan asoslanilgan tarixiy haqiqatga erishish. Tarixiy bilish nazariyasida metodologiya ma'lum bir faoliyatning aniq maqsadlari va yo'nalishlarini belgilaydigan falsafiy tamoyillar va umumiy qoidalarining majmuasi sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy bilish ikki turga bo'linadi, birinchisi kundalik tarixiy bilish (kundalik hodisalar, jarayonlar, har kuni odatiy ravishda sodir bo'lib turadigan, o'z-o'zidan (tartibsiz ravishda) yuz berishi (sodir bo'lishi) mumkin bo'lgan hodisalar va jarayonlar) bo'lsa, ikkinchisi ilmiy tarixiy bilishdir. Tarix fani ko'p tarmoqli fan bo'lib, inson va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bir qator sohalar rivojlanishi jarayonlarining umumiyliigi mahsulidir. Endi esa tarix fanining keng tarmoqlari haqida aytib o'tadigan o'tsak.



Harbiy tarix — tarix fanining eng qadimiy tarmoqlaridan biridir. Hatto «tarixning otasi» Gerodot va boshqa antik davr tarixchilari ham qadimda sodir bo'lgan urushlar haqida alohida va ko'plab ma'lumotlar yozib qoldirganlar. XVIII-asrdan boshlab esa harbiy tarix harbiy to'qnashuvlar tarixi sifatida rivojlana boshladi. XIX asr oxiri — XX asr boshlaridan boshlab, urushlar xususiyatidagi yuzaga kelgan o'zgarishlar ta'sirida harbiy tarix sohasida nafaqat harbiy sohaga aloqador masalar balki jamiyat taraqqiyotiga aloqador masalalar o'rganila boshlandi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, harbiy tarix fani sohasi tarkibiga urushayotgan mamlakatlar va davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganish sohalari ham qo'shildi. Hozirgi vaqtda harbiy tarix predmeti birmuncha kengroq tusda, ya'ni «urush va jamiyat» tushunchasiga ega bo'lib, ayrim vaqtlarda harbiy mutaxassislar harbiy harakatlarni o'rganish uchun ham jalb etiladi. Harbiy tarix fani — tarix faning tarkibiy qismi bo'lib, urushlar, harbiy jang san'ati, qurolli kuchlar, harbiy texnika va harbiy bilim berish, harbiy qo'mondonlar, qo'shinlar, davlatlarning harbiy faoliyati tajribalarini o'rganadi. Harbiy tarix fanining tarmoqlariga urushlar tarixi, harbiy jang san'ati tarixi, qurolli kuchlarning shakllanishi va tuzilishi tarixi, harbiy o'q otar qurollar va harbiy texnikaning paydo bo'lishi va rivojlanishi tarixi, harbiy qismlar tarixi va harbiy tafakkur tarixi kiradi. Shuningdek, harbiy tarixshunoslik, harbiy arxeologiya, harbiy arxivografiya, harbiy statistika sohalari harbiy tarix fanining maxsus tarmoqlari sanaladi. Harbiy soha va uning taraqqiy etib borish jarayoni haqida asosiy tushunchalarni berish imkoniyatiga ega bo'lgan urushlar tarixi hamda harbiy jang san'ati tarixi harbiy tarix fanining yetakchi tarmoqlari hisoblanadi. Harbiy tarix fani ham boshqa fanlar kabi ma'lum bilimlar sohasiga tayanadi va o'ziga xos an'anaviylikka ega. Siyosiy qarashlar, metodologik va nazariy yondashuvlar ta'sirida urushlarning xususiyatlari, mohiyati va o'rniga baho berishda turlicha yoritilish hollari ham mavjud. Shundan kelib chiqqan holda XXI -asr tarixchilari oldidagi asosiy vazifalardan biri urushlar tarixiga, harbiy harakatlar tarixiga qat'iy obyektivlik, sof ilmiylik va tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashish sanaladi.

Siyosiy tarix- tarix fanining eng dastlabki yuzaga kelgan tarmoqlaridan biri bo'lib, bu tarix o'z tarkibiga fuqarolik jamiyati tarixini, siyosiy voqealar tarixini, siyosiy tizimlarni boshqarish va ijro etuvchi hokimiyat tarixini kiritgan holda tarix fanining o'rganilishini ma'lum darajada o'zgarib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Ingliz tarixchisi D.Eltoning fikricha, siyosiy tarix jamiyatning tarkibi bo'lgan inson faoliyatini o'rganadi. Bunda asosiy e'tibor inson faoliyatini faqatgina tavsiflab berishga emas, balki uni tushunish va idrok etishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.



Mazkur tarixchi o'z fikrini davom ettirib, siyosiy tarix statistikaga butkul bog'liq bo'lib qolmasdan, abstraksiyadan qochish va faqatgina ijtimoiy tarixni yozmasdan, inson faoliyati va insonlar bilan munosabatga kirishish kerak, deb ko'rsatadi. Biroq tarixni yozishda sotsiologiyaga ko'proq e'tibor qaratuvchi bir qator tarixchilar D.Eltoning bu fikrlarini ma'qullamaydilar va asosiy qimmatli ma'lumotlarni ijtimoiy tarixdan olish kerak deb hisoblaydilar. Ko'p hollarda siyosiy tarixchilar o'z diqqat-e'tiborlarini insonlar taqdiriga ko'proq ta'sir etuvchi siyosiy hokimiyat faoliyatini o'rganishga qaratadilar. Shunga ko'ra tadqiqotlar kolami ham kengayib boradi, ya'ni aholining harakatlari, alohida muammolar, hattoki ommaviy madaniyat ham siyosiy tarixchilar diqqat e'tiboridan chetda qolmaydi. Tarix fanining bu tarmog'ni rivojlantirishda tarixchi E.Xobsboum katta o'rin tutadi. U tarixni faqatgina «oliy siyosat» sohasida emas, balki nizolar va kelishmovchiliklar, iqtisod, ijtimoiy psixologiya va boshqa bir qancha guruhlariga bo'lib o'rganishni taklif etadi. Iqtisodiy tarix statistikaning paydo bo'lishi bilan faol rivojlana boshladi. Bugungi kunda matematik modellashirishdan keng foydalaniladi. Tarixchi monetarizm, lasseferizm, D. Keyns nazariyasi va boshqa bilimlarni bilmasdan turib o'z tadqiqotlarini olib borishi samara bermaydi. Tarixchi bu soha tadqiqida odamlarning yashash tarzi haqida to'liq ma'lumot bera olishi mumkin bo'lmagan jon boshiga to'g'ri keluvchi iqtisodiy ishlab chiqarish haqidagi ma'lumotlar kabi faqatgina iqtisodiy tahlil bilangina cheklanib qolmasdan, demografiya, sotsiologiya kabilarni ham iqtisodiy soha tarixini o'rganishga jalb eta olishi kerak. Ijtimoiy tarix. XIX asrdan boshlab tarixchilar tomonidan tarixiy tadqiqotlarda oddiy odamlar va xalqning ahvolini o'rganishga e'tibor qaratish boshlandi. Marksizm ta'limotida ishchilar tabaqalarini o'rganishga asosiy e'tibor qaratildi. XX asrga kelib, «annallar maktabi» ijtimoiy tizim va jarayonlarni o'rganishga kirishdi. XX asrning 60-yillarida E. Tomson tomonidan ishchilar tabaqasining kelib chiqish tarixining o'rganilishi tarixiy tadqiqotlarda fanlararo yondashuvning imkoniyatlarini ko'rsatib berdi. Oila tarixi, ayollar tarixi o'rganila boshlandi, odamlarning kundalik faoliyati va shaxsiy hayotini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Biroq XX asrning 80-yillari ikkinchi yarmi oxirlariga jamiyat hayoti tarixini o'rganish jarayonida ko'pgina sohalar e'tibordan chetda qoldirilib, asosan sinfiy kurash masalalariga asosiy urg'u berilib, tarixning bir tomonlama o'rganilishiga yo'l qo'yildi. Shuningdek, bu jarayonlardagi bir tizimlilik ham jamiyat hayotini har tomonlama va atroflicha tadqiq qilishga imkon bermadi. XX asrning 90-yillaridan boshlab jamiyat hayotini o'rganishdagi tarixiy tadqiqotlarda bunday yondashuvlar inkor qilinib, uni har tomonlama tadqiq etishga kirishildi.



Intellectual tarix. Intellectual tarix dastlabki vaqtlarda yirik mutafakkirlarning g'oyalari tarixi sifatida rivojlanib keldi. Keyinroq esa ko'plab g'oyalarning aksariyatini tashkil etuvchi va o'zini oqlamagan va hayotga kirib bormagan bunday g'oyalarni o'rganish zaruriyati bormi, degan savol paydo bo'ldi. Tarix fanida postmodernistlar qarashlari va tadqiqotlardagi yondashuvlarining shakllanishi va taraqqiy etib borishi bilan intellectual tarix ham yangilanib bordi. Natijada intellectual tarix o'z tadqiqot ko'lamlarini kengaytirib borib, tadqiqotlar jarayonida tarixiy voqelikka diniy va ayni vaqtda ilmiy qarashlarni, turli vaqtlarda sodir bo'lgan kasalliklar va ularning kelib chiqishi va oqibatlari va boshqa shu kabilarni o'rganishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayni vaqtda yirik mutafakkirlar va ularning fikr va g'oyalariga, ulardan qoldirilgan matnlar, turli davrlarning tilshunosligi kabi sohalarga ham qiziqish ortib bormoqda.

Maqola matnida kelgan ayrim so'zlarning izohli lug'ati:

Feminizm — yunon mifologiyasidagi adolat ma'budasi Femida nomi bilan ramziy bog'langan bo'lib, XX asrda ayollarning erkaklar bilan teng huquqli bo'lishi g'oyasi.

Sintez — hodisalarni o'zaro bog'langan, bir butun holda tekshirish, olingan natijalarni umumlashtirish, ulardan bir butun xulosa chiqarish.

Abstraktlik — mavhumlik, fikrning mavhumligi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki tarix fani predmetining o'zi tarixiylik kasb etadi. Hamma vaqtda yangi ilmiy sohalarning shakllanishi va xususiylashuvi sodir bo'lib boradi. Agarda fanning predmeti aniq va konkret holda qat'iy ravishda ko'rsatib berilsa, bunda ilmiy tadqiqotlar ham o'z yakuniga yetgan va to'xtatilgan bo'lar edi. Biroq bu bilan, fanning predmetini aniqlash muhim emas, degan tushuncha kelib chiqmaydi, balki fanning predmetini aniqlashtirgan va uni aniq tushungan holdagina biz fan sohasida ko'pgina natijalarga erishishimiz mumkin. Ayrim tarixchilar tadqiqotlar jarayonida nazariyani inkor qilgan holda ko'proq faktlar (dalillar)ni sharhlashga asosiy e'tibor qaratsalar, ba'zilar aksincha tarixiy voqelikni inkor qilgan holda, tarixni haddan tashqari sotsiologiyalashtirish va psixologiyalashtirishga urinadilar. Bunday qarama-qarshilikdan ravshan boladiki, tavsiflashlarsiz tarix bo'lishi mumkin emas va ayni vaqtda nazariy tushunchalar va metodologiyasiz ham tarixning bo'lishi mumkin emas. Bundan ko'rinadiki, tarixchilarda yagona aksiomatik nazariya (izohlarga muhtoj bo'lmagan yagona nazariy qoida va tushunchalar) mavjud emas, balki nazariyalar va



interpretatsiyaning xilma-xilligi mavjud va tarix fani predmetining asosiy xususiyati ham ana shunda!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jadidchilik: Islohot, yangilanish, mustaqillik, taraqqiyot uchun kurash. To'plam. — T.: Universitet. 1999
2. Jo'raev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. — T.: Ma'naviyat. 2008.
3. Ibrat. Tarixi Farg'ona — T.: Meros. 1991.
4. Ibrohimov A. Bizkim o'zbeklar.... — T.: «Sharq», 1999.
5. Ilhomov Z.A. Tarix fani metodologiyasi. — T., 2013
6. Tarix, mustaqillik, milliy g'oya. Respublika ilmiy-nazariy anjumani materiallari. — T.: Akademiya, 2001.

